



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b:
B.Bobojonov

«14» may 2026 y.
№ 369

**Osiyo Taraqqiyot Banki bilan tuzilgan qayta kreditlash bitimlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar auditini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini yollash bo'yicha
TEXNIK TOPSHIRIQ**

T/r	Talablar ro'yxati	Talablar mazmuni
1	Tashkilotchi/Buyurtmachi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

2	Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi	<p>“Biznesni rivojlantirish banki” ATB, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Osiyo taraqqiyot banki (keyingi o‘rinlarda OTB) o‘rtasida tuzilagan kredit bitimlari doirasida imzolangan quyidagi qayta kreditlash bitimlari talablarning bajarilishi bo‘yicha auditor hisobotlarini tayyorlash:</p> <p>1. “Chorvachilik sohasida qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishni rivojlantirish” loyihasi bo‘yicha 2020-yil 10-fevraldagi L3823 (COL)-UZB-sonli qayta kreditlash bitimi:</p> <p>a) 2025-yil bo‘yicha uchun Moliyaviy kovenantlarga rioya etilishi bo‘yicha auditorlik xulosasi (Audited Report on Compliance with Financial Covenants);</p> <p>b) Audit natijalari bo‘yicha Biznesni rivojlantirish banki” ATB rahbariyatiga xulosalar (Management Letter).</p> <p>2. “Inklyuziv moliya sektorini rivojlantirish – Moliyaviy vositachilik” loyihasi bo‘yicha 2025-yil 22-sentyabrdagi 4488-UZB-sonli qayta kreditlash bitimi:</p> <p>a) 2025-yilda Bank tomonidan Mablag‘lardan foydalanish to‘g‘risidagi auditorlik yillik hisoboti (Annual Statement of Utilization of Funds);</p> <p>b) 2025-yil bo‘yicha Bankning moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) bo‘yicha tayyorlangan auditorlik moliyaviy hisoboti (Audited Entity Financial Statements, prepared in accordance with IFRS);</p> <p>c) 2025-yilda Bank tomonidan Moliyaviy kovenantlarga rioya etilishi bo‘yicha auditorlik xulosasi (Audited Report on Compliance with Financial Covenants);</p> <p>d) Audit natijalari bo‘yicha Biznesni rivojlantirish banki” ATB rahbariyatiga xulosalar (Management Letter).</p> <p>Ushbu hujjatlar rus va ingliz tillarida 3-ta nusxada taqdim etilishi lozim.</p>
3	Tanlov savdolarini o‘tkazish uchun asos	<ul style="list-style-type: none"> - “Chorvachilik sohasida qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishni rivojlantirish” loyihasi bo‘yicha 2020-yil 10-fevraldagi L3823 (COL)-UZB-sonli qayta kreditlash bitimi; - “Inklyuziv moliya sektorini rivojlantirish - Moliyaviy vositachilik” loyihasi bo‘yicha 2025-yil 22-sentyabrdagi 4488-UZB-sonli qayta kreditlash bitimi; - O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi №684 - sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni; - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-sonli qarori; - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-sonli Farmoni; - Bank Boshqaruvining 2025-yil 11-dekabrda 155/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish tartibi”; - Moliya institutlari va investorlar bilan ishlash departamenti direktorining bildirishnomasi.

4	Xizmatni boshlash muddati	Buyurtmachi va go'lib deb topilgan auditorlik tashkiloti (keyingi o'rinda Tomonlar) o'rtasida shartnoma imzolangan kundan boshlab.
5	Xizmatni bajarish muddati	<p>1. "Chorvachilik sohasida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishni rivojlantirish" loyihasi bo'yicha 2020-yil 10-fevraldagi L3823 (COL)-UZB-sonli qayta kreditlash bitimi:</p> <p>a) 2025-yil bo'yicha uchun Moliyaviy kovenantlarga rioya etilishi bo'yicha auditorlik xulosasi (Audited Report on Compliance with Financial Covenants) - 2026-yil 30 avgustgacha;</p> <p>b) Audit natijalari bo'yicha Biznesni rivojlantirish banki" ATB rahbariyatiga xulosalar (Management Letter) - 2026-yil 30-avgustgacha.</p> <p>2. "Inklyuziv moliya sektorini rivojlantirish – Moliyaviy vositachilik" loyihasi bo'yicha 2025-yil 22-sentyabrdagi 4488-UZB-sonli qayta kreditlash bitimi:</p> <p>a) 2025-yilda Bank tomonidan Mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi auditorlik yillik hisoboti (Annual Statement of Utilization of Funds) – 2026-yil 30-iyungacha;</p> <p>b) 2025-yil bo'yicha Bankning MHXS bo'yicha tayyorlangan auditorlik moliyaviy hisoboti (Audited Entity Financial Statements, prepared in accordance with IFRS) - 2026-yil 30-avgustgacha;</p> <p>c) 2025-yilda Bank tomonidan Moliyaviy kovenantlarga rioya etilishi bo'yicha auditorlik xulosasi (Audited Report on Compliance with Financial Covenants) - 2026-yil 30-avgustgacha;</p> <p>d) Audit natijalari bo'yicha Biznesni rivojlantirish banki" ATB rahbariyatiga xulosalar (Management Letter) - 2026-yil 30-avgustgacha.</p>
6	To'lov shartlari	<p>Tomonlar o'rtasida shartnoma imzolanganidan so'ng 10 (o'n) kun ichida 30% oldindan to'lov amalga oshiriladi;</p> <p>Xizmatlar to'liq xajmda bajarilgandan so'ng, Tomonlar o'rtasida qabul qilish dalolatnomasi imzolanadi va hisob-faktura taqdim etilgandan keyin to'lovning qolgan 70% 5 (besh) bank kuni ichida amalga oshiriladi.</p>
7	Shartnoma valyutasi	<p>Mahalliy yetkazib beruvchilar uchun: O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi - so'm.</p> <p>Xorijiy yetkazib beruvchilar uchun: Tanlashda taklif taqdim etilgan xorijiy valyutada.</p>
8	Ish, xizmatni yetkazib berish/bajarish manzili	"Biznesni rivojlantirish banki" ATB, Toshkent sh, Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 18 - A uy.
9	Tanlov tishtirokchilariga qo'yilgan talablar	<ul style="list-style-type: none"> - Auditorlik xizmatini taqdim qiluvchi tashkilot auditorlari Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasi (IFAC) va Xalqaro audit standartlariga (ISAs) muvofiq bo'lishi zarur; - Auditorlik xizmatini taqdim qiluvchi tashkilot tijorat banklarida auditorlik xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tajribaga ega bo'lishi hamda auditni malakali va o'z vaqtida o'tkazish uchun zarur imkoniyatlarga ega bo'lgan xodimlarni taklif etish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur; - Auditorlik faoliyati, professional audit standartlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilishi zarur; - Bank talabiga binoan auditorning xulosalari asos bo'lgan huquqiy normalar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishi zarur; - Moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligini buzish faktlarini va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni aks ettirishi zarur;

		<ul style="list-style-type: none"> - Maxfiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmasligi zarur. - Loyihalarning moliyaviy hisobotlari auditini o'tkazishda Osiyo taraqqiyot banki talablariga muvofiq auditorning texnik topshirig'iga qat'iy rioya qilishi zarur.
10	Auditorlik tashkiloti tomonidan bajarishi lozim bo'lgan xizmatlar	<ul style="list-style-type: none"> - "Biznesni rivojlantirish banki" ATB, O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Osiyo taraqqiyot banki (keyingi o'rinlarda OTB) o'rtasida tuzilagan kredit bitimlari doirasida imzolangan quyidagi qayta kreditlash bitimlari talablariga muvofiqligini tekshirish; - Davlat sektori uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (IFRS) muvofiq auditorlik hisobotini taqdim etish va maxsus moliyaviy hisobotlarni tayyorlash; - Bitim talablariga muvofiq kredit mablag'laridan foydalanish bo'yicha auditorlik xulosasini taqdim etish; - Bitim talablariga muvofiq moliyaviy shartlarga (kovenantlarga) rioya qilish bo'yicha auditorlik xulosasini taqdim etish; - Audit natijalari bo'yicha bank rahbariyatiga xat tayyorlash. - Auditorlik xizmati ko'rsatuvchi tashkilotning hisoboti va xulosalari Osiyo taraqqiyot banki tomonidan tan olinishi zarur.
11	Ish vaqti:	Haftalik 5 ish kuni soat 9:00–18:00 gacha.
12	Buyurtmachining mas'ul vakili	A. Musaxanov - Moliya institutlari va investorlar bilan ishlash departamenti direktori o'rinbosari Tel: +998 78 150 93 39, ichki raqam: 568;
13	Tanlov taklifini rasmiylashtirish shakli	Davlat xaridlari elektron tizimi orqali belgilangan shaklda.
14	Kafolat muddati	3 yil

kelishuvchilar: B.Akhmanov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=fC68iV86&id=0e5ce9b0-e7d1-4ea0-b049-b6167143f1f1>